

## ZAMONAVIY TA'LIMDA IJTIMOYIY-EMOTSIONAL YONDASHUVLARNING O'RNI: OLIY TA'LIMDA "BOLALAR ADABIYOTI" FANINI O'QITISH MISOLIDA

**Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi,**

*Samarqand davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida doktoranti*

*G-mail: [maxfuzaomonillayeva@gmail.com](mailto:maxfuzaomonillayeva@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida ijtimoiy-emotsional yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida "Bolalar adabiyoti" fani imkoniyatlari orqali ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda bolalar adabiyoti namunalarning talabalar shaxsiyati, hissiy intellekti hamda kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi roli asoslangan. Shuningdek, interfaol metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan baholanadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Natijalar zamonaviy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-emotsional ta'lim, SEL, hissiy intellekt, bolalar adabiyoti, oliy ta'lim, pedagogik kompetensiya, empatiya, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, bo'lajak o'qituvchi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические основы и практическое значение социально-эмоциональных подходов в современной системе образования. Освещаются вопросы развития социально-эмоциональных компетенций у будущих учителей начальных классов в процессе изучения дисциплины «Детская литература» в высших учебных заведениях. Обоснована роль произведений детской литературы в формировании личности студентов, их эмоционального интеллекта и профессиональной компетентности. Также рассматривается эффективность интерактивных методов обучения в развитии социально-эмоционального образования и педагогической подготовки. Полученные результаты способствуют повышению качества современного образования.

**Ключевые слова:** социально-эмоциональное обучение, эмоциональный интеллект, детская литература, высшее образование, компетентность, эмпатия, рефлексия, будущий педагог.

**Annotation.** This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of socio-emotional approaches in the modern education system. It highlights the development of socio-emotional competencies through the course "Children's Literature" in the training of future primary school teachers in higher education institutions. The study substantiates the role of children's literature examples in developing students' personality, emotional intelligence, and professional competence. It also evaluates the effectiveness of interactive teaching methods in socio-emotional learning and teacher preparation.

**Keywords:** social-emotional learning, emotional intelligence, children's literature, higher education, competence, empathy, reflection, future teacher.

**Kirish.** So'nggi yillarda dunyo ta'lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligi endilikda faqat bilim, ko'nikma va malakalar hajmi bilan emas, balki shaxsning ijtimoiy va emotsional jihatdan shakllanganlik darajasi bilan ham baholanmoqda. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social Emotional Learning – SEL) konsepsiyasi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish hamda turli hayotiy vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada SEL kompetensiyalarining shakllanishi akademik muvaffaqiyat, kasbiy rivojlanish va psixologik farovonlikning muhim omili sifatida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida ham inson kapitalini rivojlantirish, pedagogik ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga mos kompetent kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda ularning nafaqat kasbiy bilimlari, balki kommunikativ, refleksiv va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.[1]

Boshlang'ich ta'lim pedagoglarini tayyorlashda o'qitiladigan "Bolalar adabiyoti" fani mazmunan tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarga ega bo'lgan muhim fanlardan biridir. Ushbu fan orqali talabalar badiiy obrazlar, qahramonlar xarakteri, axloqiy tanlovlar va insoniy munosabatlarni tahlil qilish jarayonida o'zlarining hissiy-intellektual tajribalarini boyitadilar. Badiiy asarlar mazmunidagi mehr-oqibat, hamkorlik, adolat, bag'rikenglik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari talabalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu sababli oliy ta'lim tizimida "Bolalar adabiyoti" fanini o'qitish jarayonida ijtimoiy-emotsional yondashuvlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Ijtimoiy-emotsional ta'limning ilmiy asoslari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. D.Goleman hissiy intellekt konsepsiyasini ishlab chiqib, inson muvaffaqiyatida emotsional kompetensiyalarning ahamiyatini asoslab bergan. M.Elias, R.Weissberg, J.Durlak va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda SEL dasturlarining ta'lim sifatiga, o'quvchilar xulq-atvori va akademik natijalariga ijobiy ta'siri isbotlangan.

Pedagogika fanida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv masalalari O'zbekiston olimlari tomonidan ham chuqur va tizimli ravishda tadqiq etilgan. Xususan, Sh.Mardonov, N.Egamberdiyeva, U.Tolipov, M.Ochilov, R.Ishmuhamedov, A.Xoliqov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari zamonaviy pedagogik jarayonda o'quvchini ta'lim markaziga qo'yish, uning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishga doir muhim nazariy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilgan.[4.5] Ushbu tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati, uning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni hamda o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur olimlarning ishlarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada, ularning ilmiy merosi pedagogik

kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga muhim hissa qo'shgan.

Bolalar adabiyoti sohasida olib borilgan tadqiqotlarda esa badiiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati, bolalar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rnini hamda estetik tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Biroq bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish nuqtayi nazaridan bolalar adabiyotining imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatish, umumlashtirish hamda interpretatsion tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'qitiladigan "Bolalar adabiyoti" fanining mazmuni ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Tahlillar natijasida "Bolalar adabiyoti" fanining mazmuni ijtimoiy-emotsional ta'limning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun katta didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, fan doirasida o'rganiladigan badiiy asarlar talabalarda o'zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, empatiya, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Po'lat Mo'min ijodida bolalarning ruhiy dunyosi, do'stlik, mehribonlik va oilaviy qadriyatlar masalalari yetakchi o'rin tutadi.[6] Talabalar ushbu asarlarni tahlil qilish orqali qahramonlarning his-tuyg'ularini anglash, ularning xatti-harakatlariga baho berish va insoniy munosabatlar mohiyatini tushunishga o'rganadilar.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari esa reflektiv fikrlash, o'z xatti-harakatlarini baholash hamda mas'uliyat hissini rivojlantirish uchun muhim pedagogik manba hisoblanadi.[7] Asardagi voqealar va qahramonlarning faoliyati talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil etishga undaydi.

Quddus Muhammadiy, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev kabi bolalar adabiyoti vakillarining asarlarida ham ijtimoiy-emotsional ta'limning muhim komponentlari hisoblangan hamkorlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari aks etgan. Mazkur asarlarni tahlil qilish jarayonida talabalar turli xarakter va dunyoqarashga ega bo'lgan qahramonlar faoliyatini baholash orqali o'zlarining kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Bolalar adabiyoti" mashg'ulotlarida "Empatiya xaritasi", "Qahramon kundaligi", "Rolga kirish", "Munozara", "Muammoli vaziyatlar tahlili", "Reflektiv esse" kabi metodlardan foydalanish talabalarning hissiy faolligini oshiradi. Ushbu metodlar o'quv jarayonini faollashtirish bilan birga, talabalarning o'z fikrlarini erkin ifodalashi, boshqalarning nuqtayi nazarini tushunishi va konstruktiv muloqot olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning va talabalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajasiga bog'liq. Shaxsning hissiy jihatdan barqarorligi, o'zini boshqara olishi, boshqalar bilan samarali hamkorlik qilishi va muammolarni konstruktiv hal etishi bugungi mehnat bozori hamda ta'lim muhitida muhim kompetensiyalar sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ijtimoiy-emotsional yondashuvlarni keng joriy etish zarurati ortib bormoqda.

"Bolalar adabiyoti" fanining mazmuni aynan mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarga ega. Badiiy asarlar bilan ishlash jarayonida talabalar qahramonlarning hissiy holatini tahlil qiladi, ularning xatti-harakatlarini baholaydi, turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtiradi va o'z munosabatini bildiradi. Bu esa nafaqat adabiy tahlil ko'nikmalarini, balki empatiya, refleksiya va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Xorijiy tadqiqotlarda badiiy adabiyot o'quvchilarning hissiy intellekti va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantiruvchi samarali vosita sifatida baholangan bo'lsa, olib borilgan tahlillar mazkur xulosalarning oliy pedagogik ta'lim uchun ham dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritadigan mutaxassislar uchun bolalar psixologiyasini anglash, hissiy holatlarni to'g'ri baholash va samimiy pedagogik muloqotni yo'lga qo'yish kasbiy zarurat hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-emotsional yondashuvlarni oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun hissiy intellekt, empatiya, muloqot madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarining rivojlanganligi kelajakdagi kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va qulay psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Bolalar adabiyoti asarlari o'zining badiiy-estetik va tarbiyaviy imkoniyatlari bilan talabalarning hissiy dunyosiga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy obrazlar orqali insoniy munosabatlar, axloqiy tanlovlar, do'stlik, mehr-oqibat, adolat va mas'uliyat kabi tushunchalar yoritiladi. Talabalar mazkur asarlarni tahlil qilish davomida nafaqat adabiy bilimlarni o'zlashtiradi, balki turli hayotiy vaziyatlarni baholash, muammolarga munosabat bildirish va qaror qabul qilish tajribasiga ham ega bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-emotsional yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalarning o'quv motivatsiyasi, ijodiy faolligi va mustaqil fikrlash darajasi ortadi. Interfaol metodlardan foydalanish natijasida talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, guruh bilan ishlash va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish ko'nikmalarini

rivojlantiradi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos ravishda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.[10]

Shuningdek, bolalar adabiyotini o‘qitishda SEL tamoyillarini qo‘llash orqali talabalarning pedagogik refleksiyasi rivojlanadi. Ular kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida o‘quvchilarning hissiy ehtiyojlarini hisobga olish, individual yondashuvni amalga oshirish va sog‘lom psixologik muhit yaratish zarurligini chuqurroq anglay boshlaydilar. Bu esa pedagogik ta‘limning insonparvarlik mohiyatini yanada kuchaytiradi.

Demak, “Bolalar adabiyoti” fanini ijtimoiy-emotsional yondashuv asosida o‘qitish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv pedagogik ta‘lim mazmunini boyitish bilan birga, talabalarning shaxsiy rivojlanishi va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Zamonaviy ta‘lim tizimida ijtimoiy-emotsional yondashuvlarni joriy etish shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida “Bolalar adabiyoti” fanining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatdi.

Aniqlanishicha, bolalar adabiyoti asarlaridagi badiiy obrazlar, voqealar tizimi va axloqiy g‘oyalar talabalarda o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, empatiya, kommunikativ madaniyat va mas‘uliyatli qaror qabul qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Po‘lat Mo‘min, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Quddus Muhammadiy va Anvar Obidjon asarlarining mazmuni talabalarning hissiy-intellektual rivojlanishi uchun qulay pedagogik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida “Empatiya xaritasi”, “Qahramon kundaligi”, “Rolga kirish”, “Muammoli vaziyatlar tahlili”, “Refleksiv esse” kabi metodlarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlandi. Ushbu metodlar talabalarni faol fikrlashga, hamkorlikka va o‘z hissiy tajribalarini tahlil qilishga undaydi.

Shunday qilib, oliy ta‘lim tizimida “Bolalar adabiyoti” fanini o‘qitishda ijtimoiy-emotsional yondashuvlardan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, pedagogik kompetentligini rivojlantirish hamda insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda amaliy tajriba-sinov ishlari olib borish va maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF–60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.

4. Mardonov, Sh.Q., Egamberdiyeva, N.M., Tolipov, U.Q. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 456 b.
5. Ishmuhamedov, R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2020. – 320 b.
6. Mo‘min, P. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 384 b.
7. To‘xtaboyev, X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 240 b.
8. Muhammadiy, Q. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 312 b.
9. Obidjon, A. Bolalar uchun sara asarlar. – Toshkent: Sharq, 2020. – 280 b.
10. CASEL. What is Social and Emotional Learning? Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. – Chicago, 2023.
11. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
12. Durlak, J.A., Weissberg, R.P., Dymnicki, A.B., Taylor, R.D., Schellinger, K.B. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // Child Development. – 2011. – Vol. 82(1). – P. 405–432.

